

“YALDO KECHASI” – MILLAT VA MILLIYAT KITOBİ

Millat va milliyat – dunyodagi bor narsadan kuchli, inson va hatto butun xalq hayotiga mazmun, qalbi va ruhiga quvvat beruvchi, yuksak a'mollarga boshlovchi bemisl tuyg'u. Mahmud Koshg'ariyni "Devonu lug'otit turk"day benazir qomusiy asarni yozishga, yurtma-yurt, elma-el kezib, so'z durdonalarini yig'ishga, tunni kunga ulab asarga tartib berishga, millatning til xazinasini butun olamga namoyon etishga undagan kuch ham ayni shu tuyg'udir. Yusuf Xos Hojibning adoqsiz zahmatni doimiy halovat deb bilishi, milliy axloqning negizi, ideal davlat va jamiyat barpo etishning asosi haqida kecha-yu kunduz bedor o'ylashi, saodatga yo'llovchi bilimlar jamlangan "Qutadg'u bilig"ni dunyoga keltirishi zamirida ham ayni shu tuyg'u turadi. Buyuk Alisher Navoiy ko'ngliga ona til uchun kuyinish hissini, millatning sha'n-u sharafi va or-u nomusini himoya qilishdek ulug' niyatni solgan, diydasidan uyquni, qalbidan oromni olgan, turkiy til va adabiyotni jahoniy miqyosga yuksaltirmoq yo'lida monandi yo'q badiiy va ilmiy asarlar bitmoqqa himmat va sabot, iroda va ilhom bergan ham aynan millat va milliyat ruhidir. Ulug' Abdulla Qodiriyning murakkab va ziddiyatli bir zamonda Vatan va Millatni istibdod iskanjasidan ozod etish hamda rivojlangan davlatlar va mutaraqqiy xalqlar darajasiga yuksaltirish masalasini kun tartibiga qo'ygan qudratli harakat – jadidchilik yo'liga safarbar etgan, ushbu orzuning beqiyos ifodasi, dunyo epik tafakkurining go'zal namunasi bo'lgan "O'tkan kunlar"dek asarni yozishga yo'naltirgan ham ushbu hayotbaxsh g'oyadir. Atoqli yozuvchi Xayriddin Sulton ko'nglini muttasil o'rtagan, olti yildan ziyod vaqt davomida Vatan va millat boshiga tushgan qariyb bir yarim asrlik mustamlaka zulmatiga doir arxiv hujjatlarining, ko'hna qo'lyozmalar va jadid matbuoti namunalarining changini yutishdek mashaqqatni, ijodning adadsiz mehnat-u zahmatlarini huzur deb bilishiga bois bo'lgan, millatning o'lmas ruhiyatini yuksak badiiyat bilan ifodalagan "Yaldo kechasi" tarixiy romanini yozishda kuch-quvvat, ilhom va zavq-u shavq bergan ham millat va milliyat tuyg'usidir.

“O‘tkan kunlar”ning davomi

“Yaldo kechasi” romanini berilib, ta’sirlanib o‘qidim. Ta’kidlash kerakki, ushbu roman milliy nasrimizdagi e’tiborga molik badiiy-estetik voqeadir. Asar, muallifning o‘zi e’tirof etganidek: “...yaratilganiga shu kunlarda yuz yil to‘layotgan “O‘tkan kunlar” romaniga ilova, aniqrog‘i, uning ikkinchi kitobi o‘laroq” ijod etilgan. Vatanimiz va xalqimiz hayotining eng murakkab va ziddiyatli Rusiya mustamlakasi zamoni voqealari milliy nasrimizda ko‘rilmagan uslubda – *adabiy mistifikatsiya, o‘ziga xos bir badiiy intriga* tarzida ifodalangan roman mutolaasi ko‘zimdan uyquni, qalbimdan halovatni oldi. Bir necha kun davomida roman qahramonlari bilan bir davr va bir xil muhitda yashadim, ular quvonsa – quvondim, anduh cheksa – qayg‘ulariga sherik bo‘ldim.

Avvalo, asarning nomlanishi haqida. “Yaldo kechasi” eng uzun va qorong‘i tun ma’nosini ifodalashi ayon. “O‘tkan kunlar” asarida, muallif ta’biri bilan aytganda: “...tariximizning eng kirlik, qora kunlari” talqin etilgan bo‘lsa, uning davomi bo‘lgan “Yaldo kechasi” romanida millatning avval chor Rusiyasi, keyin esa sho‘rolar istibdodi zamonlaridagi eng uzun va zulmatli tuni – ajdodlarimizning mustamlaka zulmi ostida kechgan og‘ir va iztirobli hayoti, hurriyat yo‘lidagi jasoratli kurashi va bu yo‘lda shahid ketishi bilan bog‘liq voqealar tasvirlangan. Roman nomi, shu jihatdan, teran ramziy-majoziy ma’noga ega.

“Yaldo kechasi”ga asos bo‘lgan “O‘tkan kunlar” romanida Rusiyaning Turkistonni bosib olishi jarayonlari tasvirlanmagan. Asar syujeti 1861 yilgacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga olib, unda yurtning istibdod iskanjasiga tushishi arafasidagi tarixiy vaziyat qalamga olingan. Lekin roman xotimasidagi mana bu so‘zlar adib asarda yo‘lini topib, mustamlakaga qarshi kurash orzusini ifodalay olganidan darak beradi: *“1277-nchi (milodiy 1861) yilning kuz kezlarida bo‘lsa kerak, Yusufbek hoji Qanoatshodan bir xat oldi.*

Qanoatsho Avliyootadan yozar edi: “O‘g‘lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo‘shunda edi. Olmaota ustidagi o‘rus bilan to‘qunishmamizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib shahid bo‘ldi. Men o‘z qo‘lim bilan ikkisini dafn etdim”.

Yusufbek hoji xatmi Qur‘on qilib yurtka osh berdi, O‘zbek oyim qora kiyib ta‘ziya ochdi”.

Ana shu so‘zlarni o‘qiganda, Otabekning bosqinchi yov bilan urushda shahid bo‘lishi haqidagi xabarning o‘ziyoq Abdulla Qodiriy roman tagmatniga Rusiya istibdodidan ozodlik g‘oyasini mahorat bilan singdirib yuborgani, millat uchun bu hayot-mamot masalasi ekaniga alohida urg‘u bergani haqida o‘ylaganman. Asar so‘ngidagi “Yozg‘uchidan” sarlavhali izohdan Otabekning o‘g‘li Yodgorbek va undan qolgan ikki o‘g‘ilning ham istibdod qurboni bo‘lgani anglashiladi. Otabekning o‘zi chor Rossiyasi mustamlakasiga, keyingi ikki avlodi – o‘g‘li va nevarasining sho‘rolar istibdodiga qarshi kurashda qurbon bo‘lgani yozuvchining asl muddaosi milliy ozodlik tasviri ekanidan darak beradi. Ustoz Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” romani Otabek hayotining so‘nggi davri, milliy istiqlol yo‘lida shahid bo‘lishi, uning o‘g‘li Yodgorbek hamda nevaralari Ozodbek va Odilbeklar qismati o‘sha davr tarixiy voqeligi fonida keng epik planda tasvirlangani jihatidan “O‘tkan kunlar”ning mantiqiy davomidir.

Roman katta ko‘lamdagi arxiv hujjatlari, jadid matbuoti materiallari hamda ma‘rifatparvar jadidlar asarlarining olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan nashrlarini sinchiklab o‘qish, nainki o‘qib-o‘rganish, ijodkor qalbi va tafakkuri chig‘irig‘idan o‘tkazish natijasi o‘laroq yuzaga kelgan. Muallif, ta‘bir joiz bo‘lsa, tog‘dek mas‘uliyatni zimmasiga olgan. Tasavvur qilish qiyin bo‘lgan darajada zahmatli ishni amalga oshirgan. Asar mutolaasi yozuvchining *“no‘shi bir bo‘lsa, nishi ming, rohati bir bo‘lsa, tashvishi ming”* ijod jarayonining nihoyasiz mashaqqatini tortganidan dalolat beradi. Aslida, chinakam ijod mahsuli, dard-u so‘z (o‘rtanish) hosilasi sifatida yaratiladi. Shuning uchun ham haqiqiy ijodkor halovatni rohat-farog‘atdan emas,

mehnat-u zahmatdan oladi. Ushbu murakkab mavzudagi asarning muvaffaqiyatli yakuni buning yorqin isbotidir.

Millat irodasi talqini

Romanda millat va milliyat tuygʻusining asosi boʻlgan milliy ruh betakror va yuksak darajada ifodalangan. Asarning kompozitsiyasi va syujeti ham, ona Turkistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy voqelik va millat oydinlarining orzu-armonlari-yu amaliy harakatlari talqini ham, obraz va xarakterlar tasviri ham, tili va uslubi ham milliy ruhiyatning ohorli badiiy ifodasiga xizmat qildirilgan.

Milliy ruh – millatning asl tabiati, metin irodasi va mustahkam eʼtiqodi ifodasi demakdir. Buning uchun, birinchi navbatda, asarda syujet tasviri yuksak badiiy mantiq asosiga qurilishi zarur. “Yaldo kechasi” syujeti ijtimoiy voqelik-obraz-xarakter uchligi oʻrtasidagi munosabat chuqur psixologizm negizida talqin etilgani jihatidan qimmatlidir. Turkistondagi ziddiyatli ijtimoiy-siyosiy vaziyat oʻsha davrda dunyoda kechgan murakkab va tahlikali voqealar fonida tasvirlangani, birinchidan, muallifning olamni bir butun holda va yurtimizni uning ajralmas bir qismi oʻlaroq tasavvur etgani, ikkinchidan, adibning ijodiy niyati tarix va zamon voqeligiga ibrat nazari bilan qarash jadidlar dunyoqarashining asosi ekaniga urgʻu berish boʻlgani isbotidir. Asarda chor Rusiyasining oʻlkamizdagi va Ingliz qirolligining Hindistondagi mustamlaka siyosati qiyosan talqin etiladi. Tarixda Ispaniya hududida yuzaga kelgan va dunyoni hayratga solgan Andalus davlatining taraqqiyot va tanazzul sabablari badiiy tasvir orqali ochiqalanadi. Vatan va millatning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qoʻyilgan ana shunday ogʻir tarixiy vaziyat jadidchilik harakati yuzaga kelishi uchun omil boʻlgani asar syujetining yoʻnalishini belgilab bergan. Ahamiyatli jihati, asar qahramonlari oʻquvchiga begona emas. Asosiy bosh qahramonlar – “Oʻtkan kunlar” orqali tanish Otabek, uning oʻgʻli Yodgorbek, nevaralari Odilbek va Ozodbekdir. Yozuvchining mahorati shundaki, oʻsha kezlari zamin-u zamonda – butun dunyoda, xususan Turkistonda kechgan shiddatli ijtimoiy-siyosiy voqealarni,

istibdod iskanjasidagi ona yurtida ozodlik nihollari dastlab qay tarzda o'sib-ungani-yu keyinchalik qabohat saltanati zulmi ostida qay usulda payhon etilganini mazkur qahramonlar taqdiri misolida butun murakkabligi bilan keng epik planda tasvirlagan.

Asarda milliy ruh asoslaridan bo'lgan millatning metin irodasi o'ziga xos talqin etilgan. Mustamlaka ma'murlarining muttasil ta'qib-u tazyiqlariga, adadsiz zulm-u sitamlariga qaramay, jadidlarimizning millatni fikr tanballigidan, jaholat zulmatidan qutqarish, uni dunyoning mutaraqqiy xalqlari darajasiga yuksaltirish borasidagi izchil sa'y-harakatlari obrazli ifodalangan. Yodgorbek Otabek o'g'lining "Najot" maktabi misolida jadidlarning yangi maktab g'oyasi, usuli savtiya maktablarini ochish, ular uchun binolar qurish, Chor hukumatidan ruxsat olish mashaqqatlari, salohiyatli va fidoyi muallimlar topish va eng asosiysi, o'quv jarayonini zamon talablari darajasida tashkil etish: orzular-u g'oyalar, to'siqlar-u tazyiqlar, mehnat-u mashaqqatlar, quvonch-u iztiroblar – barchasi qahramonlar kechinmalari, intilishlari zamirida tasvirlangan.

Yodgorbekning umr yo'ldoshi Zumrad bibi – jadid ayollar timsoli. Oila boshlig'i ko'magi bilan uyining ichkari hovlisida "Muslima" nomli maktab ochilishiga erishgan bu ziyoli ayol yangi usulda o'qitish ishiga butun borlig'i, aql-u zakovati bilan kirishadi. Qisqa fursatda ayol-qizlar uning maktabini izlab kelishiga erishadi. Romanda ushbu maktablar misolida millat ziyolilarining din-diyonatni va milliy axloqni asragan holda jahonning ilg'or ta'lim metodlarini o'quv jarayoniga joriy etgani, maktab va maorifni isloh qilish, olamda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy voqelik mohiyatidan xabardor, diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal egallagan, intellektual darajasi yuqori yangi avlodni yetishtirish borasidagi mashaqqatli faoliyati butun murakkabligi bilan tasvirlanadi. Romanda Yodgorbek, Nusratxon to'ra, Xudoyorxonning kenja o'g'li Fansurulloh, Ozodbek, Odilbek kabi qahramonlar timsolida jadidchilik harakati butun mohiyati va miqyosi bilan teran talqin etilgan.

Ma'lumki, jadidlarimiz halovat nimaligini bilgan emas. Millat va milliyat g'oyasiga hayotini tikkan, butun salohiyatini shu maqsad yo'lga safarbar etgan. O'zlari maktab ochib, yangi usul darsliklarini ham o'zlari yozgan va ularni xayriya jamiyatlari mablag'lari hisobidan chop ettirishgan. Maktab-maorif bilangina cheklanmay, milliy matbuotni yo'lga qo'ygan. Gazeta-jurnallar orqali Vatan va millat oldidagi ustuvor muammolarni tahlil etib, ularni yechish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqqan. Buning uchun hech kimdan rahmat yoki rag'bat kutmagan. Qanchalik qiyin bo'lmasin, butun mas'uliyatni zimmalariga olgan. "Yaldo kechasi" romanida ana shu qiyin, mehnat-u mashaqqatga to'liq jarayon butun murakkabligi bilan aks etgan. "Najot" gazetasining ta'sis etilishi, ushbu nashr va mustamlaka ma'muriyati qarashlarini ifodalagan "Turkiston viloyatining gazetasi" o'rtasidagi g'oyaviy kurash timsolida milliy matbuotimizning oyoqqa turishi jarayoni hamda millatni jaholat va g'aflat uyqusidan uyg'otishdagi ahamiyati bor ko'lami bilan talqin etiladi. Bog'chasaroyda chiqqan "Tarjimon", Orenburgda chop etilgan "Vaqt" gazetalari va "Sho'ro" jurnali bilan hamkorlik masalalari ham muallifning diqqat markazida turadi. "Najot" gazetasi haqida "Tarjimon"da bosilgan Ismoilbek G'aspirali maqolasi munosabati bilan o'sha davrda turkiy dunyoning "Tilda, fikrda, ishda birlik" g'oyasi atrofida nechog'liq mustahkam birdamlikka erishgani talqin etilgan. Umuman, kichik epizodik tasvirlar zamirida ham katta ko'lamdagi mohiyat ifodalanishi – "Yaldo kechasi" romanining bosh xususiyati. Bunday uslub yozuvchiga oz so'zda ko'p ma'noni, ortiqcha tafsilotlarsiz ham keng miqyosdagi hayot haqiqatlarini ifodalay olish imkoniyatini bergan.

Millat va milliyat ifodasida konfliktning o'rni

Romanda millat va milliyat masalalarining mukammal talqin etilishida konflikt muhim estetik vazifa bajargan. Muallif konfliktni ikki asosga quradi: birinchisi, jadidlarning qadimchilar hamda o'zimizdan chiqqan sotqinlar bilan

kurashi bo'lsa, ikkinchisi, millat ziyolilari va mustamlaka ma'murlari o'rtasidagi ziddiyat. "Qo'y terisini yopingan qashqir" – milliy axloqqa mutlaqo zid harakatlari bois "Najot" maktabidan haydalgan Rafiq maxzum sotqinlikning tipik vakilidir. Aybi bo'ynida bo'lgan kezda bir og'iz qarshilik ko'rsatishga ojizlik qilgan bu kimsa Turkiston o'lka bosh nazoratchisi vazifasining muvaqqat ijrochisi Nikolay Ostroumovga chaquv xati yozganda o'zining razil qiyofasini to'liqroq namoyon etadi. Chaquv xatida mustabid tuzum vakiliga mana bunday iltimos bilan murojaat qiladi: *"Takror Sizdan Xudo va hazrat Iso alayhissalomni vosita etub so'raymanki, bu yozg'on xatimni faqat men bilay va Siz biling. Na ruslardan, na musulmonlardan hech kim bilmasun va xatni o'qub anglag'oningizdan so'ngra yirtib tashlang. Zero, Yodgorbek muallim va ani do'stlari bilsalar, favroi no'g'oy va Qafqoz gazitlarida ham meni va Sizni yozadurlarki, falon-falonlar "Najot" maktabi xususida donus qilibdurlar. Va falon to'ra gilavniy inspektur bo'ldi-yu darrov jadid maktabini yopdi, deb Sizni ham xafa qiladurlar. Siz janobni mudabbir va olim zot deb, Sizga ko'nglim to'lg'anidan e'timod qilib, bul so'zlarni yozdim"*.

Sotqin toifasi, odatda, uddaburon keladi, qora qilmishlarini har doim xufya bajaradi va iz qoldirmaslikka urinadi. Rafiq maxzum obrazi ham bundan mustasno emas. U qilmishining millatga xiyonat ekanini juda yaxshi biladi, nomi sotqinlik bilan gazetlarda tilga olinishini istamaydi. Lekin u axloq jihatdan tuban bo'lgani singari tabiatidagi xiyonatga moyillikning ham qulidir. Yashash tarzi shunga asoslangan. Bu obraz Xayriddin Sultonning xarakter yaratish borasida yuksak mahorat egasi ekani isbotidir. Yozuvchi millat va milliyat g'oyasining naqadar qudratli ekanini uning tamomila ziddi bo'lgan millatga xiyonat tasviri vositasida ham yorqin va ta'sirli ifodalaydi. Bu orqali sotqin qanchalik ustamonlik qilmasin, xiyonatini yashirishga nechog'liq urinmasin, kelajak avlodlar la'natiga giriftor va nomi qora bilan yozilishi muqarrar ekaniga ishora qiladi.

Asarda konflikt dinamik ravishda rivojlanib borganini kuzatiladi. Konflikt – badiiy asarning joni, syujetning rivojini ta'minlovchi benazir omil. Lekin konflikt chinakam yorqin xarakter egalari orasida kechsagina asardagi tasvir haqqoniy va uning ta'sir kuchi baland bo'lishiga xizmat qiladi. Xayriddin Sulton badiiy tafakkurni san'at darajasiga yuksaltira olgan ijodkor bo'lgani bois xarakter yaratishda hayotiy mantiq va ruhiy tahlil metodiga tayanadi. Shuning uchun ham u yaratgan qahramonlar xarakteri va harakatlari o'quvchini to'liq ishontiradi. Jadidlar va mustamlaka ma'muriyati o'rtasidagi konflikt tasviri bunga yorqin misol bo'lib, ushbu xususiyat va ijodkor uslubining hayratlanarli darajadagi uyg'unligi asar mutolaasi davomida kitobxon qiziqishini muttasil oshirib boradi. U roman voqealarida bevosita ishtirok etayotganini sezmay ham qoladi. Vatanparvar, millatparvar ajdodlarimiz boshiga tushgan adoqsiz kulfatlar yuksak mahorat bilan talqin etilgan "Yaldo kechasi"ni iztirob va anduh o'tida qovrilib o'qiganim sababi ham shu. Yozuvchining mahorati shundaki, uch avlod – ota, ya'ni Otabek, farzand – Yodgorbek hamda nevaralar – Ozodbek va Odilbek timsolida Vatan va millat boshdan kechirgan ikki mustamlaka – chorizm va sho'rolar istibdodi uqubatlarini, erk va ozodlik uchun kurashning uzun va mashaqqatli yo'lini o'quvchi ko'z o'ngida kino lentasi yanglig' yorqin namoyon eta olgan.

Yozuvchining yuksak ijodiy salohiyati yana shunda ko'rinadiki, asar qahramonlari muallif istagiga ko'ra emas, badiiy mantiqqa asosan harakatlanadi. Ular yuksak insoniy fazilatlar egasi bo'lishi barobarida tirik odam sifatida xatolarga ham yo'l qo'yadi. Aka-uka Odilbek va Ozodbek – qarama-qarshi dunyoqarashdagi obrazlar sifatida badiiy tasvirning ta'sir quvvatini kuchaytirib yuborganini ta'kidlash kerak. Odilbek – istiqloлчаilar safida sho'ro istibdodiga qarshi ochiq kurashga o'tlangan qahramon. U bolsheviklarning adolat va tenglik, xalqparvarlik va farovon turmush haqidagi soxta shiorlari zamiridagi yovuz niyatini teran anglaydi. Bu haqiqatni sho'roning mas'ul ishchilaridan bo'lgan akasi Ozodbekka ham tushuntirmoqqa intiladi. Oqko'ngil Ozodbek sho'rolarning aldovlariga

ishonadi. Aka-ukaning o'zaro muloqotida u tuyg'ularini erk shoiri Cho'lponning: "...boshimni zo'r ishka berib qo'yibman", degan satri orqali ifodalaydi. Odilbek esa akasi haqida o'ylaganda: *"Bechora akam! Kofirlarg'a qo'shilib bundoq yurishi albatta yaxshi emas. O'zi iymonli yigit, yuragi toza, faqat aldang'an. Aldaganlar. Yetimxonada fikrini zaharlaganlar. Sho'ro hukumatig'a chippa-chin ishonadir, uning butun qilmishini to'g'ri deb biladir"*, deya unga achinadi. Bu aka-ukalar tutumi Vatan va Millatni ozodlikka olib chiqish va yuksak darajada taraqqiy ettirishda jadidlar tanlagan ikki yo'lni o'zida tamsil etgan: 1) mustamlaka zulmidan qurol kuchi bilan xalos bo'lish, ochiq kurashish orqali istiqloлга erishish; 2) sho'ro hukumati bilan hamkorlik orqali bosqichma-bosqich mustaqillikni qo'lga kiritish. Muallif Odilbek va Ozodbekning bu boradagi qarashlarini chuqur psixologik holatlar orqali isbotlaydi. Ular faoliyatini ta'sirli ifodalaydi. Asardan olingan mana bu iqtibos ham ushbu fikrni tasdiqlaydi: *"Ozodbek otning jilovini sərbast tashlab qo'yg'an, zumurad tusda tovlanib yotqan ko'm-ko'k adirlarg'a, olisdag'i oq qalpoqli tog' cho'qqilarig'a bahri dili ochilib boqar ekan, ichki bir tovush bilan:*

Men suygan suyuqli shunchalar go'zal,

Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal, –

deya takrorlab borar edi". Ma'lumki, Cho'lponning ushbu she'ri peyzaj tasviri zamirida istiqloлга bo'lgan muhabbat, ozodlik orzusi vasf etilgani bilan qimmatlidir. Yozuvchi Ozodbek ko'nglining tub-tubidagi asl muddaosini sharhlaymaydi. Zero, ijodkor shuning uchun ham ijodkorki, u muayyan qahramon timsolida qanday badiiy niyat ifodalanayotganini tushuntirib o'tirmaydi. Fikrni aytmasdan aytadi, ishoralar orqali bildiradi. Tagmatndagi ma'noni o'quvchi o'zi ilg'ab olishini istaydi. Yozuvchi-roviyning mana bu so'zlari ham buning isbotidir: *"Farazan, agar ayni shu tobda bir mahrami asror topilsa-yu oydan ham, kundan ham go'zal bo'lg'an, uning zaminiy istak va xohishlaridan baland turadig'an sirli xilqatning ismini so'rasa, Ozodbekning tilidan qanday so'z uchishini zakiiy o'qig'uchilarimiz balki taxmin qila olurlar..."*.

Millatni istibdod zulmatidan qurol kuchi bilan xalos etishni maqsad qilgan Odilbek qo'lida ozodlik bayrog'ini ko'targan holda istiqlool yo'lida shahid ketadi. Milliy mustaqillikka sho'rolar bilan hamkorlik qilish orqali bosqichma-bosqich erishish, xalqini ozod, Vatanini obod ko'rish muddaosidagi Ozodbek ham qatag'on qurboniga aylanadi. Vatanparvar bo'lgani bois "Alvido, Turkiston!" nidosi ostida vafot etadi. Romandagi ana shu murakkab va ziddiyatli voqelik tasviri muallif ijod konsepsiyasi istiqlool g'oyasining bezavol ekanida aks etganini tasdiqlaydi.

Millat e'tiqodining badiiy suvratlanishi

"Yaldo kechasi"da milliyatning yana bir muhim omili – millat e'tiqodi ham qahramonlar siyrati, ularning odam va olamga, mustamlaka siyosatiga munosabati misolida yorqin suvratlanadi. Otabek – komil musulmon, dunyoda kechayotgan siyosiy voqelik mohiyatini teran anglagan fikri ochiq ziyoli timsoli. Xudoyorxonning xos mahrami maqomidagi Otabekning xonga qarata ochiq aytgan quyidagi so'zlari ham buning isbotidir: *"Ingilis qirolichasi uning elchisi boshig'a ne kunlarni solg'animizni hargiz unutmagan emasdir... Fikri ojizimcha, bu ikki podishoh – ular bir-birlari ila xesh-aqrabo ekanlari ham hazratimg'a maxfiy ermas – ushbu yo'sinda zimdan kelishib olg'anlar. Ya'nikim, Oq podishoh hukumati ingilislarning Hindistondagi hukmdorlik siyosatiga daxl etmasa, ingilis saltanati ham o'rislarning Turkistonda mo'ljal qilgan istilosiga mutlaqo aralashmas. Zero, kichik bir musulmon ulusini deb sohibi dunyo bo'lg'an ikki nasroniy davlat bir-biriga qarshi tig' ko'tarmas, olampanoh...."*. Bu fikrlar Otabek qalbini o'rtagan anduhni ifodalashdan tashqari, uning musulmon ulusi uchun kuyingan sobit e'tiqodli shaxs va o'tkir siyosatchi ekanini ham ko'rsatadi.

Millat e'tiqodi masalasi romanda Otabek – Yodgorbek – Odilbek – Ozodbek to'rtligi orqali izchil va chuqur badiiy mantiq asosida tasvirlangan. Ya'ni uch avlod ota – o'g'il – nevaralar barchasi mustahkam e'tiqodli shaxslardir. Yodgorbekning asardagi harakat traektoriyasi, kechinmalari,

orzu-armonlari ifodasi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Birgina misol. “Turkiston viloyatining gazetisi”da Samarqanddagi Xoja Ahror valiy madrasasidan olib ketilib, Peterburgdagi imperator kutubxonasida saqlanayotgan Usmon Qur’onidan nusxa ko’chiradigan moslama orqali ellik adad tayyorlab, yigirma beshtasini turli musulmon podshohlariga hadya etish niyati qilingani, qolgan 25 tasidan har biri besh yuz so’mdan sotuvga qo’yilgani, Rusiyaga tobe musulmon o’lkalari boylari sotib olmoq istasalar, ariza berishlari mumkinligi haqidagi xabarni o’qigan Yodgorbek qattiq g’azablanadi va iztirob chekadi. Yozuvchi Yodgorbekning o’sha kezdagi kechinmasini mana bunday tasvirlaydi: *“...bundog’ xabarni eshitqan har bir diyonatli musulmonning qahr-u g’azabdan bir gaz sakrab tushmoqqa biloshak haqqi bor edi”*. Usmon Mus’hafining qimmatini nechog’liq baland ekani-yu Rusiya bosqinchilari uni qanday hiyla-nayranglar bilan, ulamolardan go’yoki bu muqaddas kitobni saqlashga Samarqandda “sharoit yo’qligi” bois “ixtiyoriy” topshirilgani haqida tilxat yozdirib olib ketilgani bilan bog’liq achinarli tarixidan voqif Yodgorbek “Turkiston viloyatining gazetisi” muharriri N.P.Ostroumovga xat yozadi. Unda, jumladan, o’zining qat’iy fikrlarini mana bu tarzda bitadi: *“G’animlar Allohning kitobini ilgimizdan olib ketkan bo’lsalar ham, har qancha urinmasinlar, qalbimizdan olib keta olmaslar... Ammo shar’iy jihatdan ham, mulkiy jihatdan ham biz – Turkiston musulmonlarining bahosi yo’q bisoti bo’lmish ushbu muqaddas Mus’hafi sharifning to hanuz o’zgalar qo’lida qolib kelayotgani biz mo’minlar uchun o’lim barobaridagi isnoddir. Shul vajhdin men kamina xodimingiz yurtimizdagi barcha musulmon birodarlarimizg’a – ashraf va boyonlarg’a, ulamoi kiromlar, tujjor-u hunarmandlarg’a ixlosu ishonch ila arzi hol qilmoqchiman: muhtaram din qardoshlarim, ul tabarruk Qur’oni karimni yurtimizga qaytarmoq uchun birgalashib aztahidil sa’y-harakat va ko’shish qilaylik. Modomiki, muborak Kalomulloh nusxalarini donabay qilib o’zimizg’a sotmak niyatida ekanlar, keling, aziz birodarlar, jamoat jam bo’lib, qancha zarur bo’lsa, shul miqdor aqchani o’rtada to’plab, o’shal imperatur kutubxonasig’a beraylik hamda evazig’a Mus’hafi sharifning asl nusxasini*

o'lkamizga qaytarib olib kelaylik. Shu tariqa oxirat dunyomiz uchun ajr-u savoblar yoziladurg'on xayrli bir yumushka har birimiz qo'limizdan kelgan qadar hissa qo'shaylik".

Maktubning Ostroumov qo'liga yetib borish-bormasligi, unga yetganda ham gazetada chop etilish-etilmasligi aniq bo'lmaganidek, xat yuzaga chiqqanda ham, Turkistonning tanparvar a'yon-u amaldorlari, ziqna savdogar-u boyonlari, zamonasoz mufti-yu qozilari orasida unga e'tibor qiladiganlari topilishi gumon, shuningdek, *"...uning iztirobli xitobi bamisoli qabristonda azon chaqirg'an kabi aks-sadosiz yo'qolib ketishi"* ehtimoli kuchli bo'lsa ham, Yodgorbek *"insoniylik, musulmonliq burchini, ayni chog'da bo'ynidagi qiyomat qarzini ado etmoq"* uchun fikrida sobit qoladi. Boshiga qatag'on ko'lkasi tushgach, Yodgorbek ana shu xayrli maqsad yo'lida to'plangan o'n ikki ming olti yuz sakson to'rt so'm bilan pul berganlar ro'yxatini Nusratxon to'raga topshirib, mana bunday tayinlaydi:

– Ustod, orzuimiz amalga oshmaydig'an ko'rinadir. Mabodo, menga biror kor-hol bo'ladigan bo'lsa, ushbu omonat bo'ynimda qolib ketmasin. Imkonini topib, egalariga qaytararsiz.

Garchi o'sha kezda bu orzu ro'yobga chiqmagan bo'lsa ham, muayyan fursat o'tgach, Turkistonda Usmon Qur'oni bilan bog'liq hissiyotlar kundankun kuchayib, nainki diniy, bil'aks siyosiy talabga aylana boshlaydi. Mustamlaka ma'muriyatining bundan xavotir olishi natijasida Mus'hafi sharifning yurtimizga qaytarilishi jarayoni ham romanda ta'sirli talqin etilgan. Roman syujetidan ma'lum bo'lishicha, Moskvadan shu munosabat bilan kelgan maktubda, jumladan, mana bunday yozilgan edi: *"...Usmon Qur'onini Toshkandda kutib olish jarayonida faqatgina Diniy idora vakillari (jami 20-25 kishidan oshmagan miqdorda) bo'lishiga ruxsat berilsin;*

Qur'onni kutib olish bilan bog'liq har qanday namoyishlar, tadbirlar o'tkazish taqiqlansin;

Qur'onni kutib olish bilan bog'liq, dindorlar tomonidan yig'ilgan va yig'ilishi mumkin bo'lgan mablag'lar noqonuniy deb topilsin va bu borada yo'l

qo'yilgan xatolari uchun Toshkand Eski shahar ijroqo'miga hayfsan e'lon qilinsin;

Qur'onni Toshkandda qoldirmasdan, to'g'ri Samarqandg'a yuborib, Turkkomstaris ixtiyoriga topshirilsin va uni qo'riqlash mas'ulligi viloyat ijroqo'mi zimmasiga yuklatilsin".

Bunday kutilmagan makkorona qaror Ozodbekka yomon ta'sir qiladi. U Markazga bir necha bora murojaat etib, musulmon aholining hissiyotlari bilan o'ynashib bo'lmasligini tushuntirmoqchi bo'ladi, lekin harakatlari natija bermaydi. Bu hol garchi sho'ro mas'ullaridan bo'lsa ham, Ozodbek obrazining komil e'tiqod sohibi sifatida tasvirlangani dalilidir.

Uzoq yillar sho'rolar "bosmachilik" deb atab kelgan istiqloлчаilik harakati safiga kirar ekan, Odilbek tiz cho'kkan holda Qur'oni karimni tavof qilib, ko'ziga surtadi va chap qo'lida to'fangcha bilan quyidagicha qasam ichadi: *"Bismillahir Rahmonir Rahim. Vallohi, billohi, taallohi! Menkim, shahid Yodgorbekning o'g'li, shahid Otabekning nabirasi Odilbekdirman, Allohning kalomini, iymonimni o'rtaga qo'yib ont ichaman: ota-bobolarim xoki yotqan, bir kun o'zim ham borib yotadig'an shu tuproq uchun, millatim, dinim uchun dushmang'a qarshi so'nggi qatra qonim qolg'uncha kurashaman. Bu yo'lda shahid o'lmoqqa tayyorman. Al-qasosu min al-Haq!"* Qasamyod so'zlarini mutolaa qilar ekan, ular o'quvchiga chaqmoqdek ta'sir qiladi. Istiqloлчаilik harakati namoyandalari o'lim sharpasi har lahzada ta'qib etishiga qaramay, Vatan ozodligi uchun, millat va milliyat uchun jonlarini fido qilganini chuqur anglaydi. Qasamyod qilganda Odilbek kabi butun vujudida *"...etmish ikki tomiri bo'ylab shu vaqtga qadar sezmagan-bilmagan tizginsiz bir qudrat jo'sh urayotqanini his qiladi"*. Bu orqali adib iymon-e'tiqod hamda vatanparvarlik tuyg'usi o'zaro uyg'un ekanini o'quvchi shuuri va ruhiga teran joylaydi.

Romanda millatimiz onalariga xos sobit e'tiqod Zulayho bibi obrazi orqali, ayniqsa, ta'sirli ifodalangan. Zumrad bibining onasi, Ozodbek va Odilbekning momosi bo'lgan bu mo'tabar ayol qismati, boshiga har qancha mushkulot tushmasin, vaziyat nechog'liq qaltis bo'lmasin, o'zbek onasining

iymon yo'lida matonat va bardosh ko'rsata olganidan darak beradi. Rusiya askari Farg'onani istilo qilganda, hali go'dak Zumradning chillasi ham chiqmagan edi. Yurt mustamlaka iskanjasiga tushgan bir kezda yoshgina juvon Zulayho bibi ko'rsatgan jasorat o'quvchi vujudiga titroq solmay qo'ymaydi. Romanda yozilishicha, u: *"Kofirning oyog'i tekkan ko'cha menga harom!"* – deb o'ziga o'zi ont berdi va qaytib ostona hatlab tashqari chiqmadi, qarindosh-urug', mahalla-ko'ydagi biron to'y-hasham yoki ma'rakamavliyatg'a qadam bosmadi. U yov istibdodiga qarshi yuragidagi ojizona isyonini shu tariqa namoyon eta olg'an hamiyatlik bir ayol bo'lib, ellik sakkiz yillik umrining so'nggi oniga qadar qasamiga sodiq qoldi: ko'chaga oxirgi marta tobutda chiqdi". Bu satrlarni iztirob va anduhsiz o'qish imkonsiz. **Ana shu muxtasar tasvir orqali yozuvchi or-nomusni, iymon-e'tiqodni har narsadan ustun bilgan o'zbek onasining betakror xarakterini, yorqin va ta'sirli obrazini san'atkorona yaratgan. Bu hol yozuvchining epik tasvir borasidagi cho'ng salohiyati isbotidir.**

Adib o'tgan asr avvalida millat ozodligi masalasi er-u xotin, yosh-u qari – barcha ogoh vatandoshlarimiz uchun muqaddas vazifaga aylanganini aniq insonlar taqdiri misolida yorqin va ta'sirli ifodalaydi. Yana bir ayol qahramon – Oynisa obrazi ham milliy istiqlool uchun, millatning or-u nomusi va sha'n-u sharafi uchun kurash iymon-e'tiqod ishi deb qaralganini anglatishi jihatidan ahamiyatlidir. Asarda Odilbekning o'limidan keyin oradan ko'p o'tmay, O'sh va O'zgan tomonlarda qo'rboshi xotin paydo bo'lgani, shahid ketgan vaqtida Odilbek qo'lida bo'lgan qonli bayroqni baland ko'tarib, yuzlarcha yigitga boshchilik qilib, yovning dodini berayotgani butun Farg'onaga ovoza bo'lgani xabari beriladi. Bu ayol og'asi Nusratxon to'ra, eri Matlabxon, juvonmarg qizi Suyimaxon, din qardoshi Odilbekning xunini talab qilib, maydonga chiqqan Oynisa qo'rboshi ekani aytiladi. Romanda yozilishicha: *"U o'zining qo'rqinch jasoratlari bilan, xususan, O'sh turmasiga nogoh hujum uyushtirib, o'nlab mujohidlarni beshikast ozod etgani, qamoqxona qo'riqchilarining qurollarini*

tortib olib, o'zlarini esa hisbsxonalarg'a bandi etib ketkani haqidagi xabarlar bilan butun vodiyni titratib, dushman orasig'a vahima va larza solib yurdi".

Qariyb ikki yildan so'ng pulemyot o'qiga uchib halok bo'lgan Oynisa qo'rboshi obrazi romanga o'zgacha ruh bergan. Bu obraz Odilbek va uning safdoshlari bo'lgan istiqlolchilar shahid ketgani bilan ular muqaddas tutgan hurriyat g'oyasi, ularning ishi, a'moli, maslagi o'lmaganini isbotlashi jihatidan ham ahamiyatlidir. Bu kabi obrazlar millatimiz, kimlardir o'ylaganidek, bosqinchilar nima desa so'zsiz bo'ysunuvchi, mustabidlarga itoatgo'y olomon bo'lmaganini, uning o'z haqini talab qila olgan, hurriyat uchun jon olib, jon bergan qahramonlari borligini, ular bosqinchilar qilmishiga munosib javob qaytara olganini isbotlashiga ko'ra zamondoshlarimizga ham ibrat saboqlarini beradi.

Milliy axloq tasviri

Roman qahramonlari – ijtimoiy faol shaxslar. Ular tabiatidagi ana shu xususiyat asarda butun ko'lami bilan tasvirlanadi. Bu – tarixiy haqiqatning badiiy ifodasi ekani rost. Xayriddin Sultonning yuksak salohiyatli adib ekani yana shunda ko'rinadiki, badiiy tasvirda oltin muvozanat saqlanadi. Bu hol jamiyatda kechayotgan voqealar sur'ati qahramonlarning alohida shaxs sifatidagi o'y-xayollari, orzu-armonlari, oilaviy hayot va muhabbat tuyg'usi talqini bilan uyg'un aks ettirilganida, ayniqsa, yaqqolroq ko'rinadi. Asardagi ijtimoiy hodisalar tasvirida realizm uslubi yetakchilik qilsa, obrazlar ruhiyati ifodasida psixologizm san'atkorona qo'llangani, barcha holatlarda milliy ruh talqiniga tayanilishi roman muvaffaqiyatini ta'minlagan asosiy omillardir. Jumladan, Yodgorbek otasi Otabek qabrini izlab, qishning ayozli kunlarida safar zahmatini mardona zimmasiga olishi, valine'matining mozarini topa olmagan bo'lsa ham, u shahid ketgan zaminni ziyorat etib, ruhini shod qilishi lavhalari xalqimizga xos otaga hurmat, ota xotirasi oldidagi qarzni ado etish yo'lida ko'rsatilgan himmat va sabotning yorqin misolidir. Yodgorbekning

Sibirga surgun etilishi jarayonida jasorat ko'rsatishi jadidlarning hurriyat yo'lida o'limga tik boqqani timsoli sifatida ahamiyatlidir.

Asar qahramonlari vatanparvar va millatparvar siymolar bo'lishi barobarida o'z hayotidagi voqealarni tafakkur chig'irig'idan, qalb prizmasidan o'tkazib, o'zini-o'zi taftish qiladigan, o'zidan o'tgan qusurlarni tahlil etib, bundan muayyan xulosalar chiqaradigan shaxslardir. Jumladan, Oftob oyim farzand dog'ida kuygan ona sifatida dastlab hissiyotlar girdobida qudalari Yusufbek hoji va O'zbek oyimni ayblab, ularning Otabek va Yodgorbekka bo'lgan sog'inch tuyg'ularini qabul qilishni istamaydi. Mirzakarim qutidorga aytgan mana bu so'zlari ana shu holatni ifodalagan: *"Lekin" demang, otasi, "lekin" demang!.. Men qudalaringizning lafzig'a ishonib, yakka-yu yagona qizimdan ayrildim, nechuk endi yana ularning so'zlariga quloq solayin?!"* Yusufbek hoji va O'zbek oyimning yolg'iz nevaralarini sog'inganlari, uning diydoriga mushtiq ekanlariga doir tuyg'ulari ifodalangan maktubdagi iltijoga shunday deya mazluma Kumushini eslatuvchi Yodgorbekni Toshkentdagi buva-buvilari ziyoratiga yuborishni istamagan Oftob oyim chuqurroq o'ylab ko'rgandan keyin Otabekka boshqacha fikr aytadi:

- Bolam... Bizni desangiz, bizning sha'nimizni o'ylasangiz, borib kelganingiz ma'qul... Shundoq qiling, umringizdan baraka toping... Men bechora qudalarimning holi-holatini o'ylab, har kuni yetti qat etimdan tushaman. Axir, rahmatli Kumush biz uchun qanchalar aziz bo'lg'an bo'lsa, siz ham ular uchun shundoqsiz. Yolg'iz bolaning ishi qiyin ekan. Ular sizning Toshkentdan oyoq uzib ketishingizni noto'g'ri yo'ymasalar ham, ig'vo-tuhmat to'qiydirg'an kishilar so'zsiz topilar.

Ushbu so'zlar yozuvchining qahramon ruhiyatini teran va haqqoniy ifodalagani hosilasidir. O'zbek onasining kechinmalari chuqur psixologizm asosida ta'sirli va aynan ayol-ona tuyg'ulariga muvofiq tasvirlanadi. O'quvchi Oftob oyim ruhiyatini ikkala holatda ham to'g'ri tushunadi, qalban chuqur his etadi.

Iztiroblar girdobida ota uyidan oyoq uzib, Marg'ilonda yashayotgan Otabekning ruhiy kechinmalari ham o'z-o'zini taftish qilayotgan qahramon anduhlari o'quvchi ko'ngliga ko'chadigan darajada ta'sirli ifodalangani dalilidir. Asardagi mana bu tasvir yozuvchining qahramon botinidagi bo'ronlarni butun ko'lami bilan tasvirlaganini ko'rsatadi: *“Sahardagi suhbat, xususan, “Voliduka Rabbuka” degan so'z kun bo'yi Otabekning xayolidan ketmadi. Toshkandda hayhotdek hovlida “tiq” etsa eshik poylab o'ltirg'an qari ota-onasining g'aribona qiyofasi bot-bot esiga tushaverdi. Boshi-adog'i yo'q o'ylari aylanib kelib, bo'lib o'tmish savdolarda yakkash o'zini gunohkor deb topaverdi. Axir, inson, musulmon farzandi ham u kabi mehrsiz, toshbag'ir bo'lurmi?”*

Milliy ruhiyat romandagi Yodgorbek va Zumradning sevgi qissasida shu paytgacha biror epik asarda kuzatilmagan tarzda ohorli va san'atkorona tasvirlangan. Ular bir-biriga qanchalik kuchli muhabbat qo'ygan bo'lmasin, sevgisini hatto o'z ko'nglida o'ylashdan ham hayo qiladi. Uchqo'rg'onda yashayotgan Yodgorbek kechinmalari romanda mana bunday tasirlanadi: *“Kunduzlari bir navi o'tar, ammo subhi yo'qdek tuyuladurg'an tunlarning kechishi mushkul edi. Kun bo'yi har qancha horib-toliqqan bo'lmasin, kechalari ko'ziga uyqu kelmas, parqu bolish boshig'a toshdek botib, ixtiyorsiz suratda “uh” tortar, shiftdagi vassajuft toqilarg'a termilgan ko'yi bedor tong ottirar edi...*

Oxir-oqibat hol shu darajaga yetdiki, nogoh biron yerda “Marg'ilon” degan so'z qulog'ig'a chalinsa, yuragi bejo o'ynoqlab, uning tovushi hatto yon-atrofidag'i kishilarga bemalol eshitiladurg'an bo'lib qoldi”.

Oshiq holatining chuqur ruhiy tahliliga asoslangan ushbu ifoda mumtoz she'riyatdagi ishqiy kechinma tasviriga har jihatdan monand ekani bilan qimmatlidir. Tunni tongga ulab bedor o'tkazish, yumshoq bolishning toshday botishi, oshiq tortgan “uh”lar, ma'shuqa yashaydigan manzil nomini eshitgandayoq yuragi bejo o'ynoqlab, yonidagilarga eshitilar darajada dupurlashi... Xayriddin Sulton Sharq-u G'arb adabiyotidagi ishq tasvirini,

ayniqsa, Alisher Navoiy va Shekspir asarlaridagi oshiq holatlarining san'atkorona ifodasini ko'p mutolaa va mulohaza qilgan adib. Ana shu ohorli tasvirlarni ijodiy va ilmiy tafakkur orqali teran anglagan, chuqur his etgan ijodkor. Buyuk salaflarini takrorlamagan holda yuksak badiiy tasvir yarata olgan mahoratli yozuvchi. Oshiq holati ifodasida bularning barchasidan tashqari, tarixiy kolorit haqqoniy va ishonarli aks etgani o'quvchini asar qahramoni ruhiyatiga olib kirishi jihatidan ahamiyatlidir.

Aynan shunga yaqin holat Zumrad ruhiyatida ham kechgani, ayniqsa, muhim. *"...usta Sayfining uyida Yodgorbekdan kelgan xatlarni o'qib berishni Zumraddan so'rag'anlarida uning yuragi qafasg'a tushkan kabutar kabi tipirchilab qolishi, xususan, maktubdagi "Singillarimga ham salom" degan beozorgina jumlani tilga olg'anida yuzlari lolarang tus olib, tovushi o'zgarib ketishi"* tasvirlari o'zbek qiziga xos siyrat-u axloq, hayo-u ibo singari fazilatlar yuksak badiiy talqin etilgani bilan o'quvchi ongi va qalbiga kuchli ta'sir qiladi. Yozuvchining milliy ruhiyat ifodasi borasidagi ulkan mahoratidan dalolat beradi. Agar Is'hoqxon to'ra Ibrat obrazini tamsil etgan Nusratxon to'ra shogirdi Yodgorbek ruhiyatidagi o'zgarishga o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yib, usta Sayfi uyiga sovchi bo'lib bormaganda, odob va andishasi baland bo'lgan, milliy axloqning yuksak namunasini mujassam etgan bu ikki yoshning muhabbat qissasi qanday yakun topishini tasavvur ham qilish qiyin edi.

Iste'dod qo'liga qalam tutganning barchasiga emas, tanlangan insonlarga beriladi. Ulug' shoirimiz Muhammad Rizo Ogahiy "Ta'viz ul-oshiqin" devoni debochasida odamlar ichida *"...ba'zilarin tilin fasohat va balog'at bobida nodir, maoniy javohirin nazm etarga qodir"* qilganini ta'kidlab, ushbu safda bo'lgani uchun Tangriga shukr aytgani sababi shunda. To'g'ri, mutafakkir bobomiz bu o'rinda nazmga urg'u bergan. Lekin bizningcha, ushbu fikrlar badiiy ijodning boshqa turlari, jumladan, nasrga ham bevosita tegishlidir. Atoqli yozuvchimiz Xayriddin Sulton nasri teran hayot falsafasining beqiyos epik ifodasi, tili va uslubining ohorli va ravon ekani,

ma'no javohirlarining o'quvchi shuuri va ruhiga qo'shiqday oqib kirishi jihatidan nazmga monandligiga ko'ra salaflari va zamondoshlari ijodidan alohida ajralib turadi.

“Yaldo kechasi” romanida ustoz adib tarixiy haqiqatni yuksak mahorat bilan badiiy haqiqatga aylantiradi. Ona Turkistonning o'tgan asr avvalidagi voqeligiga doir tarixiy fakt va ma'lumotlarga jon kiritadi. Jadidlar asarlaridagi o'tli fikrlarni badiiy voqelikka san'atkorona singdirib yuboradi. Mumtoz shoirlarimiz baytlari, xalqona hikmatlar va iboralar matn mantig'iga har jihatdan uyg'un tanlangani barobarida asar tilining jozibali hamda syujetning qiziqarli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu orqali romanda tarixiy kolorit va epik tasvirning mukammal darajadagi mutanosibligi ta'minlanadi. Natijada asar qahramonlarining o'y-kechinmalari-yu shaxsiy hayot tarzidan ijtimoiy-siyosiy voqealardagi ishtirokigacha, millat oydinlarining mustamlaka ma'muriyatini tamsil etgan personajlar bilan g'oyaviy bahslari jarayonlaridan milliy ozodlik yo'lidagi amaliy kurashigacha bo'lgan harakat dinamikasi tasviri hayotiy asoslarga quriladi. O'quvchi asar syujetiga nainki ishonadi, adibning mahorati bois voqealarda ruhan, xayolan ishtirok etadi. Bu esa, o'z navbatida, yozuvchining epik tasvir borasidagi cho'ng mahoratidan va romanning hayotiy ehtiyoj hosilasi o'laroq yaratilganidan dalolat beradi.

Tuganch o'rnida

Xulosa qilib aytganda, “Yaldo kechasi” tarixiy romani milliy adabiyotimizdagi ulkan ahamiyatga ega badiiy-estetik voqeadir. Millat va milliyat kitobi bo'lgan ushbu asar har bir o'zbek xonadoniga kirib borishi, uni xalqimizning har bir farzandi mutolaa etishi zarur, deb bilaman. Chunki ushbu tarixiy roman mudroq tafakkurlarni uyg'otadi, aqlni ma'rifat qayrog'i bilan charxlaydi, ko'ngilni milliy tuyg'ular bilan charog'on etadi. Millat yoshlarining adabiy idrokini o'stiradi, badiiy didini tarbiyalaydi. Bu orqali milliy estetik tafakkurni yangi darajaga yuksaltiradi.

Maqola so'ngida badiiy kashfiyot darajasidagi hikoya va qissalar, "Boburiynoma" ma'rifiy romani va nihoyat, "Yaldo kechasi" kabi millat va milliyat kitobi muallifi, ustoz adib Xayriddin Sultonni tabarruk yetmish yoshni qarshilagani hamda ana shu sana munosabati bilan yuksak e'tirofga sazovor bo'lgani – muhtaram Prezidentimiz farmoniga ko'ra u kishiga "O'zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi" faxriy unvoni berilgani bilan chin yurakdan qutlaymiz. Yana uzoq yillar yangidan-yangi asarlari bilan milliy adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shib, hormay-tolmay yurishlarini tilaymiz.

Nurboy JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor